O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor,
professor _____ S.Boboyev
2025-yil “___” _____

Ro‘yxatga olindi: № MD- 70811101 - 1.02
2025-yil “___” _____

MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	-	Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterenariya
Ta‘lim sohasi:	810000	-	Qishloq xo‘jaligi
Ta‘lim yo‘nalishlari	70811101	-	Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi

Toshkent - 2025

Fan/modul kodi MFO'MM1104 (Magistratura)	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modulturi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4

1.	Fanningnomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	48	72	120

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad. "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va maxsus fanlarini o'qitishda talabalarga ta'lim berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi, dars mashg'ulotlarini loyihalash va ularni o'tkazish metodikasini ishlab chiqishni o'rgatuvchi pedagogik fan hisoblanadi. U o'z oldiga har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs - maxsus fan o'qituvchisini tayyorlash bilan bog'liq aniq maqsadni qo'yadi.

Fanning asosiy vazifasi. Maxsus fanlarni o'qitishda didaktik tamoyillar va qoidalardan to'g'ri foydalanish, Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni turli shakllarini loyihalash va tashkil etish usullari, ta'lim jarayonida axborot-pedagogik texnologiyalardan foydalanish. talabalar bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, ta'lim jarayonini tashkil etishning meyoriy-xuquqiy xujjatlaridan foydalanish boyicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari.

Kirish. "Dorivor o'simlikshunoslik" ga doir mazkur fanning predmeti, tushunchalari va kategoriyalari. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari. Hozirgi kundagi dolzarb muammolari.

2 - mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari.

Dorivor o'simliklarni klassifikatsiyasi (guruhlanishi).

Maxsus fanlarni o'qitishda "Dorivor o'simlikshunoslik" ga doir mavjud Qonun, qarorlar va atamalar hamda lug'atlar bilan atroflicha tanishib chiqish. Ta'lim tamoyillari va ularning mazmun mohiyati.

3 - mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishning o'quv-meyoriy xujjatlari va metodik ishlari.

Dorivor o'simlikshunoslik bo'yicha davlat ta'lim standarti *(mutaxassislik doirasi)*, malaka talablari. Mutaxassislik bo'yicha o'quv reja

va ishchi o'quv reja. O'quv dasturi. Sillabus, o'quv uslubiy majmua va kalendar rejani ishlab chiqish qoidalari.

4-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish shakllari.

Dorivor o'simliklarning asoslari va faol moddalari.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish shakllari. Mutaxassislik va umumkasbiy fanlardan dorivor o'simlikshunoslik bo'yicha ma'ruza va uning turlari. Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya mashg'ulotlari hamda ularni o'tkazish metodikasi. O'quv laboratoriyalarida o'qitish.

5-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim metodlari.

Ta'lim metodlarining tasnifi va tavsifi. Og'zaki metodlar. Ko'rgazmali metodlar. Amaliy metodlar.

6-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

Maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish zaruriyati. Ko'rgazmali vosita turlari. Ta'lim jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanish. O'quv videofilmi va undan foydalanish metodikasi.

7-Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda mustaqil ishlarini tashkil etish. *Dorivor o'simliklarni farmakognostik xususiyatlari.*

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. Mustaqil ishlarni tashkil etish maqsad va vazifalari. Mustaqil ishlarni shakllari. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini keyslardan foydalangan holda tashkil etish.

8-Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda kurs ishi (loyihasi)ni tashkil etish. *Dorivor o'simliklarni ishlatilishi.*

Maxsus fanlardan kurs ishi (loyihasi)ni bajarishtartibi. Kurs ishi (loyihasi)ni rasmiylashtirish va himoya qilish tartibi.

9-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim va interfaol metodlarnidan foydalanish.

Muammoli ta'lim konsepsiyasining mazmuni va maqsadi. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodikasi. Interfaol metodlarning o'ziga xos jihatlari va turlari.

10-Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash

Maxsus fanlarnidan talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash. Baholashning tizimlari, ularning afzallik va kamchiliklari. Ta'limda kredit texnologiyalari.

11-Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Pedagogik texnologiya tushunchasi, maqsadi, vazifalari va o'ziga xos jihatlari. Pedagogik texnologiyalarni klassifikatsiyasi. Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar tizimi. O'quv jarayonini texnologiyalashtirish qoidalari.

12-Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida modulli ta'lim va

	masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Modulli ta'limning maqsadi va vazifalari. Modulli ta'lim texnologiyasi. Masofaviy ta'lim asosidagi o'qitishning afzallik va kamchiliklari. Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar** Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi faniga kirish. 2. Maxsus fanlarni o'qitishning o'ziga hos hususiyatlari. 3. Mutaxassislik fanlarni qitishning o'quv-meyoriy xujjatlari. 4. Mutaxassislik fanlarni o'qitish shakllari. 5. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim metodlari. 6. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish. 7. Maxsus fanlarni o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish. 8. Maxsus fanlardan kurs ishi (loyihasi)ni tashkil etish. 9. Maxsus fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim va interfaol texnologiyalar. 10. Talabalarning bilimini baholash tizimlari. 11. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. 12. Maxsus fanlarni o'qitishda modulli va masofaviy ta'lim texnologiyalari. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhda bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar** **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:** 1.Maxsus fanlarning didaktik ta'minotini ishlab chiqish 2. Mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash 3. Maxsus fanlarni o'qitish shakllari 4. Maxsus fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish 5. Maxsus fanlarni o'qitishda mashg'ulotlarning rejasini tuzish va ma'ruza matnini tayyorlash 6. Ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish 7. Yil va semestr bo'yicha o'quvishlarining tashkil etilishini rejalashtirish 8. Auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish 9. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha xorij tajribasini o'rganish 10. O'qitish jarayoniga axborot texnologiyalari qo'llash 11. O'qitish jarayoniga interfaol pedagogik texnologiyalarni qo'llash 12. Ta'lim jarayoniga ko'rgazmali vositalarni tayyorlash Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3	**V.Ta'lim natijalari / Kasbiy kamponentlari:** **Talaba bilishi kerak:**

	– maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari; – maxsus fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari; – maxsus fanlar ta'lim mazmunini tanlash mezonlari; – maxsus fanlarni o'qitish metodi va vositalari; – maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari; – maxsus fanlarni o'qitishning axborot texnologiyalari; – maxsus fanlarni o'qitishning pedagogik texnologiyalari; – maxsus fanlardan o'quv amaliyotini tashkil etish; – o'quv-ishlab chiqarish ishlarini rejalashtirish va tashkil etish; – maxsus fan o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlari va metodikishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;(bilim)*** – maxsus fanlarni o'qitish jarayonining tuzilishi, qonuniyat va tamoyillari; – maxsus fanlarni o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish, talabalarning diqqatini jalb qilish va mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, – maxsus fanlarni o'qitish shakllari (ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, amaliyotlar) ni tashkil etish va o'tkazish metodikasini, – maxsus fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish turlari, shakl va metodlarini, maxsus fanlarni o'qitishning multimedia va interfaol ta'lim texnologiyalarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*****(ko`nikma)** – maxsus fanlarning didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash, – maxsus fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash, – maxsus fanlarni o'qitishda mashg'ulotlarning rejasini tuzish va ma'ruza matnini tayyorlash; – ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish, yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish, auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlikqilish, o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalarni qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** - ma'ruzalar; - interfaol keys - stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar;

	- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijaldarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. D. Tojiboyeva, A. Yo'ldoshev. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. T. "Aloqachi", 2010 y, 568 b. 2.Ismailova Z.K., Maxsudov P.M., Ergashev O.K.Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. T. 2020 y, 262 b. 3.Naga Subramani P.C. Methods and strategies of teaching pedagogical subjects. Lulu publication, 2017 y. **Qo'shimcha adabiyotlar** 4.Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. 56 b. 5.MirziyoyevSH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017 y.47 b. 6.MirziyoyevSH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. 485 b. 7.Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. 103 b. 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda. 9.To'xtayev B.Y., Axmedov E.T., Qaysarov V.T. Dorivor o'simliklar introduksiyasi. Toshkent. "O'z.R. Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi" bosmaxonasida chop etilgan. 2022 y. 156 b. 10. To'xtayev B.Y., Ganiyev A.Q., Axmedjanova A.K., Mardonov F.M., Asqarova N.K. - Dorivor va ziravor o'simliklarni aholi tomorqalarida yetishtirish hamda ulardan foydalanish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. "Ilm-Ziyo-Zakovat" nashriyoti - 2023 y. - 135 b. 11. Dr.Ravindra Sharma. Agro-Techniques of medicinal plants. Daya Publishing House. Delhi-110035. 2023 y. 277 p. 12. Курмуков А.Г., Белолипов И.В. Дикорастущие лекарственные растения Узбекистана: ботаника, химия, фармакология, медицина. Ташкент. Extremum-press, Дарслик. 2012 г. 288 ст. **Internet saytlar** 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali 2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti 3. www.tdau.uz - Toshkent davlat agrar universitetining rasmiy veb-sayti

	https://t.me/channel_tsau_library - TDAU Axborot resurs markazining rasmiy veb-sayti 4. www.lektrava.ru - ООО «Здорове» firmasining rasmiy veb-sayti 5. www.plam.ru - Online kutubxonaning rasmiy veb-sayti 6. www.plantarum.ru - Rossiya va qo'shni mamlakatlarning o'simliklari va lishayniklari: ochiq onlayn atlas va o'simliklar bo'yicha qo'llanma. 7. https://www.pharm.tohoku.ac.jp/english/pdf/en_syllabus_faculity2024.pdf/ - The University of Tokyo (Japan) (Tokio universiteti) (Yaponiya) xalqaro TOP-300 ga kiruvchi univiversitetning rasmiy veb-sayti. 8. https://medicineschool.ujk.edu.pl/files/syllabus/2016-2022/12.%20Electives%202nd-9th%20semester/utility%20and%20medicinal%20plants.pdf - KU Leuven (Belgium) (KU Leuven Belgiya) xalqaro TOP-300 ga kiruvchi univiversitetning rasmiy veb-sayti.
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Kengashining 20__-yil "___" _____ - dagi ___ - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun ma'sul:** D.B. Berdibayeva - TDAU "Dorivor o'simliklar" kafedrasi dotsent, b.f.n.
9.	**Taqrizchilar:** A.M. Nigmatullayev - O'zRFA S.Yu.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari nomzodi. E.T. Berdiyev - TDAU, "O'rmonchilik va landshaft dizayn" kafedrasi professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori.

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	O'quv dasturidagi mavzu nomi	Kiritlgan qo'shimcha va o'zgartirishlar	Havolalar:
1.	The University of Tokyo (Japan)	28 o'rin	42 o'rin	**4-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish shakllari.** ***Dorivor o'simliklarning asoslari va faol moddalari.***	The basics and active ingredients of medicinal plants. *(Dorivor o'simliklarning asoslari va faol moddalari).*	**https://www.pharm.tohoku.ac.jp/english/pdf/en_syllabus_faculity2024.pdf**
2.				**7-Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda mustaqil ishlarini tashkil etish.** ***Dorivor o'simliklarni farmakognostik xususiyatlari.***	Dorivor o'simliklarning asoslari va faol moddalari. Ularning tarkibiy formulalari va farmakognostik xususiyatlari. *(Dorivor o'simliklarning asoslari va faol moddalari).*	
3.				**8-Mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda kurs ishi (loyihasi)ni tashkil etish.** ***Dorivor o'simliklarni ishlatilishi.***	Basics and active ingredients of medicinal plants and their uses. (Dorivor o'simliklarning asoslari va faol moddalari hamda ishlatilishi.)	
4.	KU Leuven (Belgium)	61 o'rin	33 o'rin	**2 - mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari.** ***Dorivor o'simliklarni klassifikatsiyasi (guruhlanishi).***	Chemical properties biochemical and plant main groups *(Kimyoviy xususiyatlari biokimyoviy va o'simlik asosiy guruhlari)*	https://medicineschool.ujk.edu.pl/files/syllabus/2016-2022/12.%20Electives%202nd-9th%20semester/utility%20and%20medicinal%20plants.pdf